

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
ALOVUDDIN KOSONIYNING AQOID ILMIGA QO'SHGAN
HISSASI

Bazarova Oydina Oybek qizi

mustaqil tadqiqotchi

+998941563217

oydinabazarova@gmail.com

Hanafiy fiqhining yetakchi namoyandalaridan biri Aloviddin Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad al-Kosoniy Farg'ona vodiysining Koson shahrida tavallud topgan. Mana shu shaharda tug'ilganligi sabab unga Kosoniy nisbati beriladi. Allomaning tug'ilgan sanasi va yoshlik-yillari qanday o'tgani va bu davrda kimlarda ta'lim olganligi haqida hech qanday ma'lumotlar yo'q.

O'z yurtida bilim olgach, dastlab Buxoroga borib u yerda Abu-l-Muin Nasafiyning shogirdlaridan biri bo'lgan mashhur olim Alouddin Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiydan ta'lim oladi va ustozining "Tuhfatu-l-fuqaho", "Sharhi Ta'vilot" asarlarini hamda usul va furuga oid boshqa ko'plab kitoblarni o'rganadi. Kosoniy ustoz Samarqandiyning "Tuhfatu-l-fuqaho" nomli mashhur asariga sharh va o'zining shoh asari bo'lgan "Badoi"sini yozib uni ustoziga taqdim qiladi. Bundan ustoz juda ham xursand bo'lib, unga o'z qizi Fotimani nikohlab beradi. Bu vaqtda Fotima binti Samarqadiyyaga hatto turk hukmdorlari ham sovchi qo'yishgan edi. Mahr sifatida Fotima undan o'z asarini qabul qiladi. Shu nikohdan keyin xalq orasida "ustozining tuhfasini sharhlab qiziga uylandi" degan gap mashhur bo'lib ketadi.

Kosoniy Buxoroda tahsil olib, istiqomat qilganidan keyin Halab, Damashq kabi hududlarni kezadi. Ular orasida Turkiyaning Saljuqiylar davlatining poytaxti Konyaga tashrifi mashhur. Bu yerda u davr saljuqiylar sultoni tomonidan uyushtirilgan ayrim munozaralarda qatnashgan. Shiunday bahslarda u Sha'roniy degan olim bilan tortishib qolishi uni Komyadan uzoqlashtiradi. Saljuqiy sultoni tomonidan Damashq va Halab otabeki bo'lgan Nuriddin Mahmud Zangiyga (1146-

1174) huzuriga elchi sifatida yuborilgan. Halabda ilmga katta hurmat ehtirom ko'rsatishlarini ko'rgan Kosoniy shu yerda umrining oxiriga qadar yashab qoladi. Kosoniy umrining katta qismini Nuriddin Mahmud Zangiy huzurida o'tkazdi. Nuriddin Zangiy o'z davrining oqil, taqvoli, mintaqada ko'plab obodchilik ishlarini amalga oshirgan hamda ilm-fanga mehri baland hukmdor edi.

Nuriddin Zangiy Kosoniyni o'zi qurdirgan Halaviyya madrasasiga mudarris qilib tayinladi va kosoniy umrining oxirigacha shu madrasada tahsil berish bilan shug'ullandi. 587-hijriy rajab oyining 10-kuni (1191-yil 3-avgust)da Halab shahrida vafot etadi. Uni sevimli rafiqasi Fotimaning qabri oldiga dafn qilinadi.

Shubhasiz Alouddin Kosoniyning eng mashhur asari bu uning “Badoi”sidir. Lekin manbalarda bir qancha uni qalamiga mansub asarlarni zikr qilishsada ularning hozirgi kunga qadar saqlanib qolgani ma'lum emas.

Tabakat kitoblarida Kosoniyning As-Sultonul-mubin fi usulid-din deb nomlangan asari mavjudligi haqida aytiladi.¹ Ushbu asar maqola sarlavhasida tilga olingan “Al-Mutamad” asarining ayni o'zi bo'lgan bo'lsa kerak, degan qarashlar ham yo'q emas, lekin bu fikrlar hali o'z tasdig'ini topgani yo'q.

Endi asosiy maqsadimiz bo'lgan Al-Mutamad minal-mutaqid (al-e'tikod) asari haqida batafsil to'xtalib o'tishga harakat qilamiz

Risolaning muqaddimasida asar muallifning o'z tilidan asarga “Al-Mu'tamid minal-mu'tiqod”², bazi joylarda esa “Al-Mu'tamid fil-mu'tiqod”³ deb qayd etilgan. Bu farq ikki so'zning o'xshash yozilishidan kelib chiqqan bo'lishi ham mumkin.

Uning Kosoniyga tegishli ekanligini ko'rsatadigan eng muhim alomatlardan biri asarning turli mamlakatlar kutubxonalarida saqlanayotgan hamma nusxalarida “Kosoniy aytdi”, degan jumlaning ko'p bora qo'llanganligidir.

¹ Qurayshiy abu Muhammad ibn Abulvafo Muhammad ibn Muhammad Misriy. Javohiru-l muziya tabaqotil hanafiya. 5 tomlik. Abdul Fattox Muhammad Xulv tahriri ostida. – Qoxira: Hijr 1413. 1993, 2/245; Zaynuddin Qosim ibn Qutlubbo'g'o. Toj at-tarojum fi tabaqotil hanafiya. – Bag'dod: Matbaatul maoniy, 1381.1962. 25-28 B.2.55. Mustafu ibn Abdulloh Rumiy Hanafiy shahir ibnHoji Xalifa. Kashfu-z-zunun an asmoi-l-kutub va-l-funun. 2 tomlik. – Makka: Maktabatu-l-faysaliyya, 1401.1981. 328b.

² Fransiya, Irlandiya, Quddus va Konya nusxalarida shu shaklda kelgan.

³ Misr va Shom nusxalarida hamda Ali al-Qoriyning tabaqotida shu shaklda berilgan.

Bu xususiyat asarning Kosoniy tilidan ko'chirilganligini va asarning unga tegishli ekanligini tasdiqlaydi. Asarning eng qadimiy nusxasi hisoblanadigan fransuz nusxasi muallifning vafotiga juda yaqin (587/1191) ya'ni 591/1195-yilda ko'chirilganligi ham shu o'rinda muhim ahamiyatga ega.

Boshqa tomondan, Ali al-Qoriy (vaf. 1014/1605), Kosoniyning "As-Sultonul-mubin" nomli asariga "Al-Mutamad fil-mutaqid" nomini ham qo'ygani aytiladi.⁴ Bu ibora "Al-Mutamad"ning o'tmishda Kosoniyga tegishli ekanligiga ishonch borligini bildiradi.

Kosoniy o'zining "Al-Mutamad" risolasida Buxoro va Samarqanddagi moturudiy olimlar tomonidan qabul qilingan diniy qarashlarni jamlagan. Buxoroda ta'lim olib bo'lgach dastlab Ko'nya, Damashq singari shaharlarda bo'lib Halabga borib joylashadi va shunda unda shunday bir risola yozishga kirishadi. Aytish mumkinki, Kosoniy bunday asar yozish bilan o'zi yashagan mintaqada unchalik ma'lum bo'lmagan Hanafiy-Moturidiy e'tiqod asoslarini bu yerdagi odamlarga tanitishni maqsad qilgan.⁵ "Al-Mutamad" asari iymon masalalarini chuqur o'rganuvchi ilohiy asar emas, aqoidga oid ixcham risola bo'lsa-da, kalom ilmiga oid qarashlar ma'lum tizimga solingandir.

Kosoniyning aqida haqidagi risolasining o'zidan keyingi Hanafiy-Moturiydiylikning aqoidga oid asarlarda u qadar keng tarqalmagan bo'lsada, ushbu asar ta'sirini ayrim asarlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mana shunday asarlardan biri Kosoniyning shogirdi Ahmad ibn Muhammad G'aznaviy (vafoti 593/1197) qalamiga mansub kalom ilmiga bag'ishlangan "Usuli-d-din" asaridir. G'aznaviy, ustozining "Al-Mutamad"dagi ba'zi so'zlarini muallifini ko'rsatmay aynan iqtibos tarzida keltirib o'tadi.

Kosoniy risolasining ta'sirini yaqqol ko'rib turgan yana bir asar Zaynuddin ar-Roziyning (666/1268-yildan keyin)⁶ "Hidaya mina'l-i'tiqod" nomli sharhidir.

⁴ Ali b. Sultân Muhammed el-Kârî, *el-Esmârü'l-ceniyye*, 2/705

⁵ Ahmad AK moturidiylikning Halab va Damashqqa kelishiga hissa qo'shgan Alouddin al-Kosoniyning hissasi kataligi aytadi. Hanafiy-moturidiylik u yerda qirq yildan ko'proq vaqt davomida tarqaldi. Qarang: Ahmet Ak, "Mâturîdîliğîn Halep ve Şam'a Gelişi", *Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi* 16/1 (2016), 131-132

⁶ Hüseyin Elmalı, "Râzî, Muhammed b.Ebû Bekir", *Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi* –İstanbul: TDV Yayınları, 2007, -S. 34/487-488.

Bu asarning muqaddima qismida shu asardan ayrim parchalar keltirib o'tilgan.

Yana shunisi e'tiborliki, Kosoniy vafotidan (587/1191) ko'p o'tmay, "Al-Mutamad" 591/1195-yillarda Onadolining eng qadimgi madrasalaridan biri Miranshoh ibn Kavurd madrasasida ko'chirilganligi Halab va Onadoli mintaqasida iste'molda bo'lganligini ko'rsatadi.

Asarning jahonning turli kutubxonalarida saqlanayotgan bir qancha nusxalari mavjuddir:

1. Fransuz nusxasi. Ushbu nusxa Fransiya milliy kutubxonasida saqlanadi. Arabi adabiyotlar bo'limida 825 raqamdagi qo'lyozma tarkibida 321a-324b sonli varaqlar orasida joylashgan.⁷ 4 varoqdan iborat bo'lib har bir varoq 23 qatordan iborat. Nusxada o'chirilgan, o'chirib qayta yozilgan joylari mavjud emas. Aynan 825 raqamdagi qo'lyozmani ko'chirgan xattotning xati bilan asarning yozuvi bir xil ekanligi aynan bir xattot tomonidan yozilganini anglatadi. Bu qo'lyozmada Kosoniy asaridan tashqari Abul-Lays as-Samarqandiyga (vaf. 373/983) tegishli "Muhtalafur-rivoya" nomli asar mavjud. Miranshoh ibn Kavurd madrasasiga tegishli vaqf yozuvi mavjud. (319b ga qarang).

2. Irlandiya nusxasi. Ushbu nusxa Irlandiyaning Chester Beatty kutubxonasida 4446 raqamida ro'yxatga olingan qo'lyozmaning 54b-60a varaqlari orasida joylashgan⁸. Hajmi 6 varoq va har bir beti 17 qatordan iborat.⁹

3. Konya nusxasi. Bu nusxa Koniya viloyat qo'lyozmalari kutubxonasi, Koniya viloyat xalq kutubxonasi to'plamida 2392-raqamli ro'yxatga olingan majmuaning 64-raqamli 21b-25a varaqlari orasida joylashgan. Kutubxona katalogidagi asar nomi xato bilan "Mutamad fi'l-mutekid" shaklida va muallifiga oid ma'lumotlar berilmagan holda berilgan. Hajmim 4 varoq va har biri 21 satrdan

⁷ William MacGuckin baron de Slane, Catalogue des Manuscrits Arabes (Paris: Imprimerie Nationale, 1883-1895), 177.

⁸ Ushbu majmuaga kiritilgan asarlar quyidagilar: Abul Homid al-G'azzoliy (vaf.505/1111) Kavoidü'l-akoid'iy, Kosoniy (vaf. 587/1191) al-Mu'temed mine'l-mu'tekad, Avhaduddin Ahmad Ibn Abi'l-Mueyyed an-Nasafiy (vaf. 519/1126)) al-Manzumetu'r-raiyye, Sharafuddin abul-Fadl Ismoil ibn Ibrohim ibn Ahmad al-Hanafiy ash-Shayboniy (vaf. 629/1231), Sharhu l'tikadu't-Tahoviy, Najmuddin Umar an-Nasafiyning (vaf. 537/1142) Bayonu'l-mazohibi. Shihobudddin Abu Hafs Umar as-Suhravardiy (vaf. 632/1234)ning Aqidatu's-Suhravardiy, G'azzoliyning "Kavoidü'l-akoid" asarining birinchi qismi, Ibn Jemaa (vaf. 819/1416)ning "Dercu'l-mealiy".

⁹ Arthur J. Arberry, The Chester Beatty Library: A Handlist of the Arabic Manuscripts –Dublin:Hodges Figgis & Co. Ltd., 1962,- P. 5/144.

iborat. Qo'lyozmaning muqovasida asar Husayn ibn Mustafo tomonidan ko'chirilgani aytiladi.

4. Quddus nusxasi. Ushbu nusxa Falastin Diniy Ishlar Boshqarmasiga qarashli Quddusdagi Ihya'ut-Turas val-Buhusul-Islomiyya markazining kutubxonasida 342/2-m6 raqami bilan ro'yxatga olingan. Hajmi 4 varoq har bir betda 24-25 qator mavjud.

5. Misr nusxasi. Ushbu nusxa Misr Milliy kutubxonasi (Dorul-Kutubul-Misriyya) Tal'at to'plamining 231-sonida ro'yxatga olingan qo'lyozmaning 103-109-betlarida joylashgan. Hajmi 4 varoq va hari 21 qatordan iborat bu nusxada ayrim joylarida yozuvga shikast yetgan qismlari mavjud. Sarlavha va matnda asar nomi boshqa nusxalardan farq qiladi. "Al-Mutamad fi-l-mutaqad" deb yozilgan. Qo'lyozma tarkibidagi boshqa ikkita asardan biri 1181/1767-yilda ko'chirilgan bo'lsa ikkinchi asar esa 1183/1769-yilda ko'chirilganligi qayd etilganligi sababli, Kosoniyning asari shu sanalar atrofida ko'chirilgan bo'lishi mumkin.

6. Damashq nusxasi. Bu nusxa Damashqdagi Majmaul-Lug'atil-Arabiya kutubxonasida 284 raqamida ro'yxatdan o'tgan majmuad 19b-22b sonli varaqlar orasida joylashgan. Hajmi 4 varoq va har biri 22 satrdan iborat Asar nomi matnda boshqa nusxalardan farqli ravishda "Al-Mutamad fi-l-mutaqid" sifatida qayd etilgan. Ushbu qo'lyozma kutubxona katalogida "As-Sultanu-l-mubin fi usuli-d-din" deb atalgan.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki Alouddin Kosoniyning "Al-Mutamad" asari uning "Badoi"si kabi ilm ahli orasida mashhur bo'lmasa ham aqoid ilmi bo'yicha muhim manba bo'lib, asarning Shom va Halabda moturudiylik aqidasi kirib borishi va uni tanitishdagi ahamiyati kattadir. Asar hajman ancha kichkina bo'lishiga qaramay hali ko'p tadqiqotlar qilinmagan. Shu sababli ham asarning o'zbek tiliga tarjima qilish ajdodlarimizning merosini o'rganish yo'lida katta qadam bo'ldi.